



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA ADABIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA O'QUV TOPSHIRIQLARINING SAMARADORLIGI

**Islomova Hafiza
Azamatovna**

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti doktoranti

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining adabiy kompetensiyasini rivojlantirishda o'quv topshiriqlari tizimining pedagogik samaradorligi yoritilgan. O'quv topshiriqlari badiiy matnni anglash, tahlil qilish, talqin etish, baholash va metodik transferga yo'naltirilgan vosita sifatida asoslanadi. Tadqiqotda refleksiv topshiriqlar hamda ijodiy portfel texnologiyasi o'quv topshiriqlari samaradorligini oshiruvchi mexanizmlar sifatida tahlil qilindi. Tahlil va natijalar qismida topshiriqlar tasnifi, ijodiy portfel tarkibi, namunaviy topshiriqlar paketi hamda baholash mezonlari tizimlashtirildi. Xulosa qismida o'quv topshiriqlaridan samarali foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: adabiy kompetensiya, o'quv topshiriqlari, refleksiv topshiriq, ijodiy portfel, badiiy matn, bolalar adabiyoti, metodik transfer, baholash mezonlari.

Аннотация. В статье раскрывается педагогическая эффективность системы учебных заданий в развитии литературной компетенции будущих учителей начальных классов. Учебные задания рассматриваются как методическое средство, направленное на понимание, анализ, интерпретацию, оценку художественного текста и методический трансфер. Рефлексивные задания и технология творческого портфолио анализируются как механизмы повышения эффективности учебных заданий. В разделе анализа и результатов систематизированы классификация заданий, структура творческого портфолио, пакет примерных заданий и критерии оценивания. В заключении представлены методические рекомендации по эффективному использованию учебных заданий в литературном образовании.

Ключевые слова: литературная компетенция, учебные задания, рефлексивное задание, творческое портфолио, художественный текст, детская литература, методический трансфер, критерий оценивания.

Annotation. The article examines the pedagogical effectiveness of educational tasks in developing literary competence among future primary school teachers. Educational tasks are interpreted as methodological tools aimed at understanding, analyzing, interpreting, evaluating literary texts, and ensuring methodological transfer. Reflective tasks and creative portfolio technology are analyzed as mechanisms that increase the effectiveness of educational tasks. The analysis and

results section systematizes the classification of tasks, the structure of the creative portfolio, sample task packages, and assessment criteria. The conclusion provides methodological recommendations for the effective use of educational tasks in literary education.

Keywords: literary competence, educational tasks, reflective task, creative portfolio, literary text, children's literature, methodological transfer, assessment criteria.

Kirish

Zamonaviy pedagogik ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi faqat fan mazmunini bilish bilan cheklanmaydi. U badiiy matnni anglash, uni bolalar idrokiga mos talqin qilish, matn asosida savol-topshiriq yaratish, o'quvchini mustaqil fikrga olib borish va o'z metodik qarorini baholay olish layoqatiga ega bo'lishi kerak. Shu jihatdan adabiy kompetensiya boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining umumkasbiy tayyorgarligida muhim tarkibiy qism hisoblanadi.

Rasmiy-me'yoriy asoslar mazkur masalaning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida "har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi" deb belgilangan [1]. Bu talab pedagogik ta'limda har bir talabaning individual imkoniyatini hisobga oluvchi, shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari tizimini joriy etishni taqozo etadi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish hamda pedagog kadrlar malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish vazifalari belgilangan [2]. Mazkur strategik yo'nalish oliy pedagogik ta'lim mazmunini yangilash, talabani nazariy bilim bilan birga real dars vaziyatida qo'llanadigan metodik vositalar bilan qurollantirish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli o'quv topshiriqlari badiiy matnni o'qish, tahlil qilish, talqin etish, ijodiy qayta ishlash va baholashni bog'lovchi samarali pedagogik vosita sifatida qaraladi.

Maqolaning maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining adabiy kompetensiyasini rivojlantirishda o'quv topshiriqlari samaradorligini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun adabiy kompetensiyaning mazmuni, o'quv topshiriqlarining metodik vazifasi, reflektiv topshiriqlar va ijodiy portfel imkoniyatlari, bolalar adabiyoti materiallari asosida topshiriqlar paketi hamda baholash mezonlari tahlil qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mavzu bo'yicha ilmiy qarashlar bir nechta yo'nalishda shakllangan. Birinchi yo'nalish kompetensiyaviy yondashuv bilan bog'liq bo'lib, unda bilim, ko'nikma, qadriyat va faoliyat natijasi o'zaro aloqador tizim sifatida talqin qilinadi. Rasmiy-me'yoriy jihatdan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "O'zbekiston — 2030" strategiyasi ta'lim sifatini oshirish, pedagogik kadrlar tayyorgarligini takomillashtirish va natijaga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish zaruratini belgilaydi [1; 2]. Shu asosda adabiy kompetensiyaning rivojlantirish talabaning o'qish,

tahlil qilish, fikr bildirish, ijodiy mahsul yaratish va o'z faoliyatini baholash imkoniyatlari bilan bog'liq holda qaraladi.

Ikkinchi yo'nalish o'quv topshiriqlari tizimi bilan bog'liq. Adabiy ta'limda topshiriq talabani badiiy matn bilan faol muloqotini tashkil qilishi, uni reproduktiv o'qishdan tahlil, talqin, baholash va metodik transfer bosqichiga olib borishi asoslangan [3]. Demak, samarali o'quv topshirig'i oddiy savol-javob emas, balki matnni anglash, dalil topish, shaxsiy-estetik munosabatni asoslash va kelajakdagi dars uchun metodik xulosa chiqarishga xizmat qiluvchi maxsus faoliyatdir.

Uchinchi yo'nalish bolalar adabiyoti mazmuni va uni o'qitish metodikasi bilan izohlanadi. "Bolalar adabiyoti" fani o'quv dasturida mazkur fanning maqsadi, mazmuni va kutiladigan natijalari bolalar idroki, janr xususiyatlari hamda tarbiyaviy-estetik imkoniyatlar bilan bog'liq holda belgilangan [6]. Bolalar adabiyotiga oid darslik va metodik manbalarda ertak, hikoya, she'r va masal kabi janrlar orqali talabalarda badiiy matnni tahlil qilish, obrazni baholash hamda metodik topshiriq ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi [7].

To'rtinchi yo'nalish ijodiy portfel texnologiyasi bilan bog'liq. Portfel ta'lim oluvchining rivojlanish dinamikasini ko'rsatuvchi dalillar to'plami bo'lib, unda bajarilgan topshiriqlar, tahliliy yozuvlar, metodik ishlanmalar, ijodiy mahsullar va o'zini baholash natijalari jamlanadi. Bu yondashuv o'quv topshiriqlarini bir martalik nazorat vositasi emas, balki adabiy kompetensiyaning uzluksiz shakllanish jarayonini kuzatuvchi metodik monitoring vositasi sifatida qo'llash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada nazariy-tahliliy, qiyosiy-pedagogik, strukturaviy-modellashtirish va metodik loyihalash usullaridan foydalanildi. Nazariy-tahliliy usul yordamida rasmiy hujjatlar, kompetensiyaviy yondashuv, o'quv topshiriqlari, refleksiv ta'lim, ijodiy portfel va adabiy ta'limga oid manbalar o'rganildi. Qiyosiy-pedagogik usul orqali an'anaviy nazorat topshiriqlari, refleksiv topshiriqlar va ijodiy portfel texnologiyasining imkoniyatlari taqqoslandi.

Strukturaviy-modellashtirish usuli asosida o'quv topshiriqlari samaradorligini ta'minlovchi bosqichli model ishlab chiqildi. Metodik loyihalash usuli esa bolalar adabiyoti materiallari asosida reproduktiv, analitik, interpretativ, refleksiv, ijodiy va metodik-konstruktiv topshiriqlar paketini yaratishda qo'llanildi. Shuningdek, maqolada kompetensiyaviy natijani aniqlash uchun mezon, ko'rsatkich va darajalarni ifodalovchi jadval ham ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asosida talabani subyekt sifatidagi faolligini kuchaytirish g'oyasi turadi. O'quv topshiriqlari reproduktiv, analitik, interpretativ, refleksiv, ijodiy va metodik-konstruktiv turlarga ajratilganda ularning har biri adabiy kompetensiyaning muayyan komponentini rivojlantiradi [3]. Ushbu yondashuv topshiriq, refleksiya va portfelning pedagogik mohiyatini asoslaydi: talaba o'qish maqsadini belgilaydi, badiiy matn bilan ishlaydi, natijasini portfelga joylaydi, uni tahlil qiladi va keyingi metodik qarorini takomillashtiradi.

Tahlil va natijalar

O'quv topshiriqlari adabiy kompetensiyaning rivojlantirishda badiiy matnni shaxsiy-estetik, tahliliy va metodik tajriba bilan bog'laydigan maxsus faoliyat turidir. Samarali topshiriq talabani "matnni tushundim" darajasida to'xtab qolmasdan,

“nimani angladim?”, “qaysi dalilga tayandim?”, “bu fikrni boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga qanday yetkazaman?”, “keyingi safar qanday yaxshilayman?” kabi savollar asosida o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqishiga imkon beradi.

Refleksiv topshiriqlar va ijodiy portfel o‘quv topshiriqlari samaradorligini oshiruvchi muhim vositalardir. Portfel tarkibiga ifodali o‘qish audioyozuvi, obrazlar xaritasi, qahramon nomidan yozilgan xat, talqiniy esse, muammoli savollar banki, dars fragmenti, o‘zini baholash varaqasi va yakuniy refleksiv xulosa kiritilishi mumkin. Bunday yondashuv talabaniy adabiy kompetensiyasini ko‘rinadigan, o‘lchanadigan va rivojlanadigan natijaga aylantiradi.

1-jadval.


O‘quv topshiriqlari turlari va ularning adabiy kompetensiyaga ta’siri

Topshiriq turi	Mazmuni	Rivojlantiriladigan komponent	Portfelga joylanadigan mahsulot
Tushunishga yo‘naltirilgan topshiriq	Matnning asosiy mazmuni, qahramon va voqeani anglash	Kognitiv, motivatsion	Qisqa konspekt, syujet xaritasi
Tahliliy topshiriq	Obraz, detal, konflikt va muallif pozitsiyasini dalillash	Tahliliy-interpretativ	Obrazlar xaritasi, dalillar jadvali
Aksiologik topshiriq	Qahramon xatti-harakati va asar g‘oyasiga shaxsiy baho berish	Refleksiv-baholovchi	Esse, axloqiy xulosa, munosabat varaqasi
Ijodiy topshiriq	Matn asosida yangi badiiy yoki nutqiy mahsul yaratish	Kreativ, nutqiy-kommunikativ	Qahramon nomidan xat, muqobil yakun
Metodik-konstruktiv topshiriq	Badiiy materialni boshlang‘ich sinf darsiga moslashtirish	Metodik-konstruktiv	Dars fragmenti, savol-topshiriqlar banki

Jadvaldan ko‘rinadiki, o‘quv topshiriqlari bir xil mazmundagi savol-javob bilan cheklanmaydi. Ular adabiy kompetensiyaning turli qatlamlarini — tushunish, tahlil qilish, talqin etish, baholash, ijodiy ifodalash va metodik moslashtirishni — bosqichma-bosqich faollashtiradi. Shu sababli topshiriqlar tizimi talabaniy adabiy bilimni amaliy metodik harakatga aylantiradigan muhim vosita hisoblanadi.

1-rasm. O'quv topshiriqlari va ijodiy portfel texnologiyasi sikli

O'quv topshiriqlari va ijodiy portfel texnologiyasi sikli



1-rasmda texnologiyaning siklik xarakteri ko'rsatilgan. Jarayon maqsad va mezonlarni aniqlashdan boshlanadi, badiiy matn bilan ishlash, o'quv topshirig'ini bajarish, portfel artefakti yaratish, o'zini baholash va metodik transfer bosqichlari orqali davom etadi. Bu sikl yakuniy nazoratga emas, balki doimiy takomillashuvga yo'naltirilgani bilan samaralidir.

2-jadval.

Ijodiy portfel tarkibi va pedagogik funksiyasi

Portfel bo'limi	Mazmuni	Pedagogik funksiyasi	Baholash belgisi
Kitobxonlik dalillari	O'qilgan badiiy matnlar ro'yxati, qisqa taassurotlar	Motivatsiya va kitobxonlik madaniyatini ko'rsatish	Muntazamlik, mustaqillik
Tahliliy materiallar	Obrazlar xaritasi, dalillar jadvali, qiyosiy tahlil	Tahliliy fikrlashni rivojlantirish	Dalilga tayanganlik
Ijodiy mahsullar	Esse, qahramon nomidan xat, dialog, muqobil yakun	Ijodiy nutq va tasavvurni rivojlantirish	Original yondashuv
Metodik ishlanmalar	Dars fragmenti, savol-topshiriqlar, baholash varaqasi	Kasbiy transferni ta'minlash	Yoshga moslik, metodik aniqlik
Refleksiv yozuvlar	O'z faoliyatini baholash, xato va yutuqlarni ko'rsatish	Kasbiy o'sishni boshqarish	Tanqidiylik, takomillashtirish taklifi

2-jadval ijodiy portfelning faqat ishlar to'plami emas, balki metodik monitoring vositasi ekanini ko'rsatadi. Har bir bo'lim ma'lum pedagogik funksiyani bajaradi: birinchisi o'qish tajribasini, ikkinchisi tahliliy salohiyatni, uchinchisi ijodiy nutqni, to'rtinchisi metodik tayyorgarlikni, beshinchisi esa refleksiv o'sishni

namoyon qiladi. Shunday qilib, portfel o'quv topshiriqlari natijasida shakllanadigan adabiy kompetensiyani dalillaydi.

Bolalar adabiyoti materiallari asosida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda janr xususiyatini hisobga olish zarur. Ertakda yaxshilik va yomonlik ziddiyati, hikoyada xarakter va hayotiy vaziyat, she'rda ohang va obrazlilik, masalda esa ramziy ma'no va axloqiy xulosa markazga chiqadi. Shuning uchun barcha matnlarga bir xil topshiriq berish adabiy kompetensiyani to'laonli rivojlantirmaydi.

Ijodiy topshiriqlar adabiy kompetensiyaning kreativ va nutqiy-kommunikativ komponentlarini rivojlantiradi. Matnli topshiriqlar orqali kreativ tafakkurni rivojlantirish muhim metodik omil sifatida baholanadi [8]. Shuningdek, adabiy mavzudagi insho, esse, obraz tavsifi va qiyosiy tahlil kabi yozma ishlar talabani shaxsiy fikri va estetik qarashini namoyon etuvchi ijodiy mahsul sifatida izohlanadi [9; 10]. Shu bois ijodiy portfel texnologiyasida talaba nafaqat tayyor matnni tahlil qiladi, balki original metodik mahsul yaratadi, uni baholaydi va takomillashtiradi.

3-jadval.


Bolalar adabiyoti asosida o'quv topshiriqlari va ijodiy portfel mahsullari

Janr/material	O'quv topshirig'i	Ijodiy portfel mahsuli	Metodik maqsad	Kutiladigan natija
Ertak	Qahramon tanlovini "nima uchun?" savoli asosida baholang	"Men qahramon o'rnida bo'lsam..." esse	Axloqiy xulosa va baholashni shakllantirish	Mustaqil pozitsiya yuzaga keladi
Hikoya	Bitta badiiy detal qahramon xarakterini qanday ochishini dalillang	Detal tahlili kartasi	Dalil asosida tahlil qilish	Matn bilan ishlash aniqlashadi
She'r	Ohang, pauza va obrazli ifoda matn kayfiyatini qanday o'zgartirishini izohlang	Ifodali o'qish audioyozuvi va sharh	Estetik idrok va nutqiy ifodani rivojlantirish	Badiiy nutq ta'sirchanligi anglanadi
Masal	Ramziy qahramonlar orqali berilgan xulosani boshlang'ich sinfga qanday tushuntirasiz?	2-sinf uchun savol-topshiriq paketi	Metodik transforni kuchaytirish	Yoshga moslashtirish malakasi shakllanadi
Qiyosiy o'qish	Ikki qahramonning qarorini solishtirib, dalilli xulosa chiqaring	Venn diagrammasi va reflektiv xulosa	Qiyosiy tahlil va baholash	Tahliliy va reflektiv fikr uyg'unlashadi

3-jadvalda berilgan topshiriqlar talabani badiiy matnni o'qishdan metodik mahsulot yaratishgacha bo'lgan harakatini ko'rsatadi. "Portfel mahsuli" ustunining mavjudligi topshiriq natijasini ko'rinadigan dalilga aylantiradi. Bu esa baholashni subyektiv taassurotdan aniq ko'rsatkichlarga asoslangan monitoringga olib chiqadi.

2-rasm. O'quv topshiriqlari va ijodiy portfelning pedagogik samaradorlik mexanizmi

Pedagogik samaradorlik mexanizmi



2-rasmda pedagogik samaradorlik uch bosqichli mexanizm sifatida ifodalangan: kirish omillari, texnologik jarayon va natija. Kirish omillarida badiiy matn, nazariy bilim, motivatsiya va metodik vazifa mavjud bo'ladi. Texnologik jarayonda o'quv topshirig'i, ijodiy yozuv, portfel artefakti, o'zini baholash va qayta loyihalash birlashadi. Natijada tahliliy fikr, dalillangan talqin, ijodiy nutq, metodik qaror va kasbiy refleksiya rivojlanadi.

4-jadval.

O'quv topshiriqlari samaradorligini baholash mezonlari

Mezon	Past daraja	O'rta daraja	Yuqori daraja	Dalil manbai
Matnni anglash	Mazmunni yuzaki qayta aytadi	Tayanch voqealarni izohlaydi	Mazmuniy qatlamlarni ajratadi	Syujet xaritasi
Tahliliy fikrlash	Dalilsiz baho beradi	1–2 dalil keltiradi	Matnga tayangan tizimli tahlil qiladi	Dalillar jadvali
Talqin	Tayyor fikrni takrorlaydi	Qisman mustaqil izoh beradi	Ramziy va yashirin ma'noni asoslaydi	Talqiniy esse
Ijodiy nutq	Shablon javob beradi	Ijodiy elementlardan foydalanadi	Original va estetik mahsul yaratadi	Xat, dialog, muqobil yakun
Metodik transfer	Topshiriqni yoshga moslashtira olmaydi	Qisman moslashtiradi	Aniq maqsadli, yoshga mos topshiriq ishlab chiqadi	Dars fragmenti
Refleksiya	O'z xatosini ko'ra olmaydi	Natijani umumiy baholaydi	Xato, sabab va takomillashtirish yo'lini belgilaydi	Refleksiv kundalik

4-jadval o'quv topshiriqlari samaradorligini baholashda faqat yakuniy ball emas, balki kompetensiyaviy o'sish dinamikasi muhim ekanini ko'rsatadi. Baholash mezonlari matnni anglash, tahlil, talqin, ijodiy nutq, metodik transfer va refleksiyaning qamrab olgan uchun u adabiy kompetensiyaning ko'p komponentli tabiatiga mos keladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quv topshiriqlari tizimi adabiy kompetensiyaning shakllanishida uch asosiy samarani beradi. Birinchidan, talaba badiiy matnni tayyor mazmun sifatida emas, tahlil, talqin va baholash obyekti sifatida qabul qiladi. Ikkinchidan, ijodiy portfel talabani o'z faoliyatiga qayta qarashga, yutuq va kamchilikni aniqlashga, keyingi vazifani ongli rejalashtirishga o'rgatadi. Uchinchidan, metodik transfer orqali badiiy bilim boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun mos didaktik mahsulotga aylanadi.

O'quv topshiriqlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy o'sishida muhim ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolani badiiy matn bilan tanishtirishda faqat mazmunni so'zlab beruvchi emas, balki o'quvchini savol, kuzatuv, suhbat, dramatizatsiya, ifodali o'qish va ijodiy javob orqali matnga olib kiruvchi tashkilotchidir. Shunday ekan, talabada adabiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni topshiriqlar tizimi, portfel va refleksiya bilan uzviy bog'lanishi kerak.

Maqola doirasida ishlab chiqilgan texnologik yondashuv o'quv topshiriqlarini refleksiv va portfelga asoslangan monitoring mexanizmi bilan boyitadi. Natijada topshiriq bir martalik mashq emas, balki o'qish, tahlil, talqin, ijodiy ifoda, metodik moslashtirish va o'zini baholashni birlashtiruvchi kompleks pedagogik vositaga aylanadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining adabiy kompetensiyasini rivojlantirishda o'quv topshiriqlari tizimi yuqori pedagogik samaradorlikka ega. Ushbu tizim talabaning badiiy matnni anglash, tahlil qilish, talqin etish, baholash, ijodiy qayta ishlash va boshlang'ich sinf o'quvchisiga mos metodik mahsulotga aylantirish faoliyatini izchil tashkil etadi.

O'quv topshiriqlarining samarasi shundaki, ular talabani shaxsiy fikr bildirishdan dalillangan xulosa chiqarishga, keyin esa o'z metodik qarorini qayta ko'rib chiqishga olib boradi. Ijodiy portfel esa bu jarayonni dalillar asosida kuzatish, baholash va rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois oliy pedagogik ta'limda adabiy kompetensiyani baholash faqat test yoki og'zaki javob bilan cheklanmasdan, portfel artefaktlari, refleksiv yozuvlar, dars fragmentlari va ijodiy mahsullar asosida ham amalga oshirilishi zarur.

Amaliy tavsiya sifatida "Bolalar adabiyoti", "O'qish savodxonligi metodikasi" va "Ona tili o'qitish metodikasi" fanlari doirasida har bir yirik mavzu bo'yicha o'quv topshiriqlari paketini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda topshiriqlar kamida besh yo'nalishni qamrab olishi kerak: matnni anglash, tahliliy ish, ijodiy mahsul, metodik topshiriq va refleksiv xulosa. Har bir yo'nalish uchun aniq mezonlar ishlab chiqilsa, talabaning adabiy kompetensiyasidagi o'sish bosqichma-bosqich kuzatiladi.

Shuningdek, o'quv topshiriqlarini loyihalashda janr xususiyati, yoshga moslik, metodik maqsad, dalillash talabi va portfel mahsuli oldindan belgilanmogi lozim.

Ana shunda o'quv topshirig'i formal mashq emas, balki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining adabiy-metodik tayyorgarligini rivojlantiruvchi real pedagogik vositaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 23.09.2020. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-158-son, 11.09.2023. – URL: <https://lex.uz/docs/-6600413>
3. Rasulova G.K. Adabiy ta'limda o'quv topshiriqlari ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2026. – B. 5–16.
4. Mavlonova K.M. Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi: pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – B. 18, 27.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – B. 45.
6. Bolalar adabiyoti. Fanning o'quv dasturi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2023. – B. 1–3.
7. Islomova H.A., Mirzayeva N.B., Islamova D.D., Mambetova L.M. Bolalar adabiyoti: darslik. – Toshkent: Toshkent amaliy fanlar universiteti, 2025. – B. 8–30.
8. Yulbarsov O.O'., Isayeva G.Sh. Matnli topshiriqlar vositasida ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish // Maktabgacha va maktab ta'limi. – 2026. – 3-son. – B. 426–427.
9. Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmirzayeva Sh. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent, 2020. – B. 14–15.
10. Yo'ldoshev R., Rixsiyeva M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – Toshkent, 2019. – B. 33–34.